O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



“O‘ZBEK TILINING GLOBAL MAQOMI VA NUFUZINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI”

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI







2026-yil
16-oktabr

O‘ZBEK TILIDA QADRIYATLAR TIPOLOGIYASINING LINGVISTIK VERBALIZATSIYASI

LINGUISTIC VERBALIZATION OF THE TYPOLOGY OF VALUES IN THE UZBEK LANGUAGE

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2026.10.16/UBFU7363

Komilova Gavharoy Ro‘zimovna
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti
E-pochta: r_gavharoy@mail.ru
ORCID: 0000-0003-4846-2100

Annotatsiya. *Mazkur maqolada qadriyat tushunchasining zamonaviy aksiologik, ijtimoiy-madaniy va lingvistik talqinlari umumlashtirilib, qadriyatlar tipologiyasini o‘zbek tilidagi lingvistik ifodasi tahlil qilingan. Qadriyatlarning oilaviy, milliy, ma’naviy-axloqiy, diniy, ijtimoiy, umuminsoniy, moddiy va intellektual turlari ajratilib, ularning leksik, frazeologik, paremiologik, metaforik hamda kontekstual ifoda vositalari ko‘rsatiladi. Tadqiqotda World Values Survey, Schwartzning qadriyatlar nazariyasi, Løvaasning qadriyatlarni tadqiq etish metodologiyasi haqidagi qarashlari, J.Puzynina va R.Handkening lingvistik-aksiologik konsepsiyalari nazariy asos sifatida olinadi. Qadriyatning til birliklarida namoyon bo‘lishi faqat nomlash jarayoni emas, balki muayyan qadriyatning konseptuallashtirilishi, baholanishi va kommunikativ kontekstda voqelanishini o‘z ichiga olishi asoslanadi. Natijada “qadriyat turi → aksiologik belgi → lingvistik indikator → verbalizatsiya vositasi → kontekstual voqelanish” modeli taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *qadriyat, aksiologiya, aksiolingvistika, qadriyatlar tipologiyasi, verbalizatsiya, lingvistik indikator, baholash, lingvokulturologiya, o‘zbek tili.*

Annotation. *This article synthesizes contemporary axiological, sociocultural, and linguistic interpretations of the concept of value and examines the linguistic verbalization of value typology in the Uzbek language. It identifies several types of values, including family, national, spiritual and moral, religious, social, universal, material, and intellectual values, and explores the lexical, phraseological, paremiological, metaphorical, and contextual means through which they are expressed. The theoretical framework draws on the World Values*

Survey, Schwartz’s theory of basic human values, Løvaas’s perspectives on the methodology of value research, and the linguistic-axiological conceptions of J. Puzynina and R. Handke. The study substantiates the claim that the manifestation of values in linguistic units involves more than the process of naming; it also encompasses the conceptualization and evaluation of a particular value, as well as its realization in a communicative context. Accordingly, the article proposes a model of value verbalization consisting of the following components: “value type → axiological feature → linguistic indicator → means of verbalization → contextual realization.”

Keywords: *value, axiology, axiological linguistics, value typology, verbalization, linguistic indicator, evaluation, linguoculturology, Uzbek language.*

Qadriyat insonning borliq, jamiyat, boshqa insonlar va o‘z “men”iga munosabatini tartibga soluvchi muhim ma’naviy-kognitiv hodisalardan biri. Qadriyatlar shaxsning xatti-harakatini yo‘naltiradi, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi va muayyan madaniyat vakillari uchun muhim bo‘lgan me’yoriy tasavvurlarni shakllantiradi. Shu sababli qadriyat masalasi falsafa, aksiologiya, psixologiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik va tilshunoslikning kesishgan nuqtada tadqiq etilmoqda.

Aksiologik tadqiqotlarda qadriyatlarning bevosita kuzatiladigan predmet emasligi, ular inson faoliyatini yo‘naltirishi va unga ma’no hamda maqsad berishi ta’kidlanadi. Jumladan, B.J.Løvaas qadriyatlarni o‘rganishda ularning ochiq (explicit) va yashirin (implicit) shakldagi ifoda ko‘rinishlarini farqlaydi. Ochiq qadriyatlar verbal ifodalar orqali anglashilsa, yashirin qadriyatlar faoliyat va xatti-harakatlarda namoyon bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi (Løvaas, 2022: 15-18). Bu lingvistik tadqiqot uchun muhim bo‘lib, til birliklarida bevosita nomlangan qadriyat bilan kontekst orqali anglashiladigan qadriyatni farqlashga xizmat qiladi.

Qadriyatlarni xalqaro miqyosda o‘rganishga qaratilgan yirik loyihalardan biri **World Values Survey (WVS)** hisoblanadi. Mazkur loyiha 1981-yildan boshlab turli jamiyatlarda qadriyat, e’tiqod, munosabat va ularning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o‘zgarishlarini o‘rganib kelmoqda. WVS materiallarida qadriyatlar an’anaviy-dunyoviy-ratsional hamda omon qolish-o‘zini namoyon qilish kabi keng o‘lchamlarda ham tahlil qilinadi.

Biroq ijtimoiy fanlarda ishlab chiqilgan bunday tipologiyalarni bevosita lingvistik tasnif sifatida qabul qilish to‘g‘ri emas. Tilshunoslik uchun asosiy

masala quyidagilardan iborat: muayyan qadriyat tili qanday birliklari orqali nomlanishi, qaysi semantik belgilar bilan ifodalanishi, qanday baholanishi va qaysi kommunikativ kontekstlarda faollashishi va boshqalar.

Shu nuqtayi nazardan, qadriyatlar tipologiyasini lingvistik verbalizatsiya bilan bog‘lash aksiolingvistikaning muhim vazifalaridan biri sifatida o‘rtaga chiqadi.

1. Qadriyat tushunchasining lingvistik-aksiologik talqini

Aksiologiya qadriyatlarning tabiati, tizimi, manbalari va inson faoliyatidagi o‘rnini o‘rganuvchi fan bo‘lsa, aksiolingvistika qadriyatlarning tilda aks etishi, ifodalanishi va kommunikativ jarayonda faollashishini o‘rganadigan tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishi.

J.Puzyninaning tadqiqotlari mazkur masalaning lingvistik asoslarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Uning *Słowo – wartość – kultura* asarida til, qiymat va madaniyat munosabati markaziy o‘rin egallaydi [Puzynina, 1997: 35,36].

Puzynina yondashuvida til birliklarining ma’nosi ularning lug‘aviy mazmuni bilangina cheklanmasligi ta’kidlanib, matn, kontekst, kommunikativ vaziyat va madaniy bilim ham qadriyat mazmunni anglashga ta’sir ko‘rsatishi aytiladi. U mazmunni tushunishda kontekstga alohida e’tibor qaratadi. Mazkur qarash qadriyatlarning lingvistik tahlilida ahamiyatli, chunki biror leksemaning aksiologik mazmuni ko‘pincha faqat uning lug‘aviy ma’nosidan emas, balki kontekstdagi baholovchi xususiyatidan kelib chiqadi.

R.Handke esa qadriyatlarning badiiy matndagi kommunikativ tashuvchilariga munosabat bildiradi [Handke, 1992:199,200]. Ya’ni uning konsepsiyasi qadriyatning matnda shunchaki mavjud bo‘lishini emas, uning kommunikativ tashuvchi vositalar orqali uzatilishini tahlil qilish imkonini beradi.

Yuqorida aytilgan fikrlardan kelib chiqib, lingvistik jihatdan qadriyatga quyidagicha ta’rif berish mumkin: qadriyat deb muayyan obyekt, hodisa, shaxs yoki xatti-harakatning subyekt yoki jamiyat tomonidan ma’lum mezon asosida ijobiy yoki salbiy baholanishini ko‘rsatuvchi hamda til birliklari orqali konseptuallashtiriladigan aksiologik mazmuniy birlikka aytiladi.

Bu ta’rif qadriyatni naaqat falsafiy kategoriya, balki lingvistik jihatdan kuzatiladigan hodisa sifatida o‘rganish imkonini beradi.

2. Qadriyatlar tipologiyasi: ijtimoiy tasnifdan lingvistik tasnifga

Qadriyatlarning yagona universal tipologiyasi mavjud emas. Ularni turli fanlar va nazariyalarda turlicha ko‘rsatilgan. Jumladan, World Values Survey

tadqiqotlari sotsiologik so‘rovnomlar yordamida jamiyatning an’anaviy-dunyoviy-ratsional va omon qolish-o‘zini namoyon qilish o‘lchamlari bilan qiyoslanadi. An’anaviy qadriyatlar qatorida din, ota-ona va farzand munosabatlari, hokimiyatga hurmat, milliy g‘urur; o‘zini namoyon qilish qadriyatlari esa tolerantlik, gender tenglik, shaxsiy tanlov va fuqarolik ishtirokiga urg‘u beradi.

Schwartz nazariyasida esa qadriyatlar o‘nta asosiy turga ajratiladi: *muvaffaqiyatga erishish (achievement), xayrixohlik (benevolence), ijtimoiy me’yorlarga rioya qilish (conformity), lazzatlanishga intilish (hedonism), hokimiyat va mavqega intilish (power), xavfsizlik (security), mustaqil fikrlash va o‘zini o‘zi boshqarish (self-direction), yangilik va hayajonga intilish (stimulation), an’analarga sodiqlik (tradition), umuminsoniy qadriyatlarni e’tirof etish (universalism)* [Schwartz, 1994]. Ushbu turlar yuqoriroq darajada *o‘z manfaatlaridan yuksak turish (self-transcendence), mavjud tartib va an’analarni saqlash (conservation), shaxsiy manfaat va muvaffaqiyatga intilish (self-enhancement), yangilik va o‘zgarishlarga ochiqlik (openness to change)* kabi guruhlarga birlashtiriladi [Løvaas, 2022: 88-92].

Mazkur tipologiyalar lingvistik tadqiqot uchun tayyor tasnif vazifasini bajarmasa-da, tilshunosga qadriyatlarning semantik maydonlarini belgilash uchun nazariy yo‘nalish beradi. Lingvistik tahlilda esa ushbu qadriyatlarning konkret verbalizatorlarini aniqlash maqsad qilinadi.

Shu asosda o‘zbek tilidagi qadriyatlarni quyidagi funksional-semantik guruhlarga ajratish mumkin:

1. Umuminsoniy qadriyatlar — hayot, tinchlik, erkinlik, adolat, insonparvarlik.

2. Oilaviy qadriyatlar — ota-ona, farzand, oila, qarindoshlik, mehr-oqibat, to‘y, marosimlar.

3. Milliy-madaniy qadriyatlar — Vatan, xalq, millat, ona til, milliy urf-odat va an’analar.

4. Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar — halollik, vijdon, or-nomus, hayo, sadoqat, adolat.

5. Diniy qadriyatlar — imon, e’tiqod, taqvo, savob, ezgulik.

6. Ijtimoiy qadriyatlar — hamjihatlik, tenglik, adolat, ishonch, o‘zaro hurmat.

7. Intellektual qadriyatlar — ilm, bilim, ma’rifat, tafakkur, ijod.

8. Moddiy-iqtisodiy qadriyatlar — boylik, farovonlik, rizq, mulk, mehnat.

Biroq ushbu tasnif qat’iy chegaralangan taksonomik bo‘may, tahlil qilinayotgan kontekstga qarab o‘zgaradi, zero qadriyat dinamik hodisa. Shuningdek, ma’lum bir aksiologik konsept bir necha qadriyat guruhini bir vaqtning o‘zida faollashtirishi mumkin. Masalan, *Vatan* milliy, ma’naviy va umuminsoniy qadriyatlarni kesishgan holda ifodalanishi, *ota-ona* esa oilaviy qadriyat bilan bir qatorda hurmat, burch, mehr va diniy-ma’naviy qadriyatlar bilan bog‘lanishi kuzatiladi.

Demak, lingvistik tipologiya aksiologiya va sotsiologiyadagi tasniflardek ierarxik emas, balki **kesishuvchi va tarmoqlanuvchi xarakterga ega.**

3. Qadriyatlarning lingvistik verbalizatsiyasi

Qadriyatlarning lingvistik verbalizatsiyasi deganda qadriyat mazmunining tilning turli sath birliklari orqali moddiylashuvi nazarda tutiladi. Bunda verbalizatsiya faqat qadriyat nomini ifodalovchi leksemalar bilan chegaralanmaydi.

Lovaas qadriyatlar tadqiqida ochiq verbal ifoda bilan yashirin, amaliy harakatlarda mujassamlashgan qadriyatlarni farqlaydi. Ochiq qadriyatlar verbal ifodalar orqali namoyon bo‘lsa, implisit qadriyatlar faoliyat va amaliyotlarda yashirin holda mavjud bo‘lishi ta’kidlanadi (Lovaas, 2022: 18-20). Ushbu farqni lingvistik materialga tatbiq qilganda qadriyat verbalizatsiyasining ikki asosiy ko‘rinishini ajratish mumkin:

1) eksplisit verbalizatsiya: qadriyatning bevosita nomlanishi: *ahmoqda aql bo‘lmas, aqlli baxil bo‘lmas; aql boshlaydi, oyoq tashlaydi; himmat – elning tayanchi, mehnat – rohat quvonchi* va boshqalar.

2) implitsit verbalizatsiya: qadriyatning kontekst, metafora, frazeologizm, maqol, sintaktik konstruksiya yoki kommunikativ vaziyat orqali ifodalanishi: *til – aql tarozisi; til – aqlning qilichi, farosat – g‘ilofi; yigit orif bo‘lsa, aslini so‘rama; gadoychilikka ham uquv kerak* va boshqalar.

3.1. Leksik verbalizatsiya

Qadriyatlarning bevosita ifodalanish shakli, ko‘pincha leksemalar orqali amalga oshadi: *qadr, hurmat, izzat, ehtirom, mehr, sadoqat, halollik, vijdon, nomus, or, adolat, erkinlik, tinchlik, ilm, bilim, Vatan, oila, farzand* kabi.

Ularning semantik tuzilmasida baholash komponenti mavjud. Xususan, *hurmat* ijobiy ijtimoiy munosabatni, *halollik* axloqiy me’yorni, *Vatan* milliy mansublik va identifikatsiyani, *ilm* esa intellektual taraqqiyotga oid ijobiy munosabatni ifodalashi, shuningdek, diskursga qarab o‘zgarishi mumkin.

Masalan, ilmiy diskursda akademik halollik, *tanqidiy fikrlash* singari akademik qadriyatlarni moddiylashtiradi.

Shu sababli leksemani aksiolingvistik tahlil qilishda leksema → nominativ ma’no → koonatativ ma’no → aksiologik belgi → qadriyat turi → kontekst ketma-ketligiga asoslanish maqsadga muvofiq.

3.2. Frazeologik verbalizatsiya

Qadriyatlar frazeologik birliklarda ko‘pincha bevosita emas, obrazli tarzda namoyon bo‘ladi: *qadriga yetmoq, ko‘z qorachig‘idek asramoq, boshiga ko‘tarmoq, jonini jabborga bermoq, ko‘nglini og‘ritmoq* kabi birliklar muayyan ijtimoiy va axloqiy munosabatlarni ifodalashi mumkin.

Frazeologizmlarning aksiologiya bilan o‘zaro munosabati haqidagi tadqiqotlar fanda **aksiofrazemika** yo‘nalishini yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Shuningdek, adabiyotlarda [Краснобаева-Чёрная, 2018] aksiofrazemik pragmatika termini ham qo‘llaniladi. Aksiofrazemik pragmatika tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlaridan biri sifatida raqamli diskurs bog‘lanadi. Cunki frazeologizmlar tarkibidagi baholovchi komponent nutqiy pragmatikada lisoniy ta’sir ko‘rsatishning eng kuchli quroli sifatida ijtimoiy tarmoq va reklama diskursida keng ishlatiladi.

3.3. Paremiologik verbalizatsiya

Maqollar qadriyatlarning xalq tajribasi asosida umumlashtirilgan verbal modellaridir. Zero “maqollarda qadriyatlar yaxlit tizim holida namoyon bo‘ladi va aksiologemalarni tashkil etadi. Aksiologemalar millatning yashash tarzi, urf-odat, an’analari bilan bog‘liq ravishda takomillashib boradi. Hayot haqidagi inson qarashlari nutqda voqelanar ekan, diniy, milliy qadriyatlarning kategoriyalashtirilishiga asoslaniladi. Qiymat shakllanib, milliy ongda idrok etiladi. Demak, qiymat inson – ijtimoiylik – qiymat – qadr – milliy ong – til sxemasida inson onggida mavjud bo‘ladi, obrazlar orqali verballashadi va milliy qadriyatlarning obrazli semantik maydoni, aksiologemani yuzaga keltiradi” [Kmilova, 2023:90]. *Sabr – yutuq kaliti; qanoat – qizil oltin; poklik sog‘likni, aql sabrni saqlar* singari maqollarda sabr qadriyati aks etgan. Lekin hozirgi davr nuqtayi nazrida diskursda sabr qadriyat darajasida ifodalanmasligi mumkin.

4. Qadriyatning verbalizatsiya modeli

Yuqoridagi kuzatish va tahlillar asosida qadriyatlarning o‘zbek tilidagi lingvistik voqelanishini quyidagi model orqali ifodalash mumkin:

QADRIYAT TURI → KONSEPTUAL BELGI → AKSIOLOGIK MEZON → LINGVISTIK INDIKATOR → VERBALIZATSIYA VOSITASI → KONTEKSTUAL VOQELANISH

Jumladan, **OILA** qadriyati:

Oila → mehr/burch → qarindoshlik va axloqiy mas’uliyat → ota-ona, farzand, oila, mehr, oqibat → leksema/frazeologizm/maqol → oilaviy diskurs.

VATAN qadriyati:

Vatan → mansublik/sadoqat → milliy identifikatsiya → Vatan, yurt, el, ona zamin, uy → leksema/metafora/paremiya → milliy-ma’naviy diskurs/ijtimoiy-siyosiy diskurs

ILM qadriyati:

Ilm → bilim/taraqqiyot → intellektual rivojlanish → ilm, bilim, ma’rifat, olim → leksema/metafora/maqol → ta’limiy va ilmiy diskurs.

Bu model qadriyatning tilda qanday “paydo bo‘lishi”ni bosqichma-bosqich ko‘rsatadi.

Demak, qadriyatning to‘liq mazmunini aniqlash uchun uning nominativ belgisi, semantik va baholovchi komponenti, konnotatsiyasi, frazeologik ifodasi, paremiologik reprezentatsiyasi, metaforik modeli, kontekstual funksiyasi birgalikda o‘rganilishi kerak.

Qadriyatlarning lingvistik tipologiyasi qadriyatlarni faqat falsafiy yoki sotsiologik kategoriyalar sifatida tasniflashdan voz kechib, ularning til tizimi va nutqiy faoliyatdagi real reprezentatsiyasini aniqlashni talab qiladi. World Values Survey va Schwartz kabi yondashuvlar qadriyatlarning umumiy hamda ijtimoiy tipologiyasini shakllantirish uchun muhim nazariy, empirik asos bersa, lingvistik tadqiqot bu tipologiyalarni til materialida tekshiradi. WVS qadriyatlarni jamiyatlararo qiyoslash uchun keng empirik baza yaratadi, Schwartz modeli esa qadriyatlarni motivatsion turlar va yuqori darajadagi guruhlarga ajratish imkonini beradi.

Shunday qilib, **qadriyatlar tipologiyasi** va **lingvistik verbalizatsiya** o‘rtasidagi bog‘liqlikni qadriyatning qaysi guruhga mansubligini aniqlash bilangina emas, balki uning qanday konseptuallashtirilishi, qaysi aksiologik mezon asosida baholanishi va qaysi til birliklari orqali voqelanishini aniqlash orqali ochish mumkin. Bu yondashuv o‘zbek tilidagi milliy, oilaviy, ma’naviy-axloqiy, diniy, ijtimoiy, intellektual va umuminsoniy qadriyatlarning lingvistik tabiatini kompleks tadqiq etish uchun metodologik asos yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. Handke R. Komunikacja aksjologiczna – nośniki wartości w dziele literackim. In S. Sawicki, A. Tyszczyk (red.), *Problematyka aksjologiczna w nauce o literaturze. Studia*. 1992, Lublin: Wydawnictwo KUL. – C. 199-222.

2. Kalieva A. Этнические ценности как объект социально-гуманитарного познания. Вестник Оренбургского государственного университета. – 2009. – № 7 (101). – С. 167-171.

3. Краснобаева-Чёрная Ж.В. Пространственный код культуры ценностной картины мира (на материале русской, украинской, английской и немецкой фразеологии). // Сибирский филологический журнал. – 2018. – № 4. – С.169-178. DOI 10.17223/18137083/65/16.

4. Komilova G. O‘zbek tilidagi maqollarning aksiolingvistik tahlili. Monografiya. – Toshkent, 2023. – 110 b.

5. Komilova, G. R. (2024). Qadriyat va bahoning lingvistik talqini. O‘zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika, (4), 46–51.

6. Kholmanova, Z. T., & Komilova, G. R. (2021). The role of zoonyms in the expression of axiological content. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(10), 1–. https://doi.org/10.5958/2278-4853.2021.00876.4

7. Lovaas B. J. (2022). Values at Work: Mapping the Field Through the Lens of Methodological Approaches. In G. Espedal, B. J. Løvaas, S. Sirris, A. Wæraas (Eds.), Researching Values: Methodological Approaches for Understanding Values Work in Organisations and Leadership. Cham: Palgrave Macmillan, 15-38. DOI: 10.1007/978-3-030-90769-3_2.

8. Puzynina J. Lingwistyka a rozumienie tekstu. In J. Puzynina, Słowo – wartość – kultura. Lublin: Towarzystwo Naukowe KUL. – 1997. – C. 35-51.

9. Puzynina J. Kontekst a rozumienie tekstu. Biuletyn Polskiego Towarzystwa Językoznawczego, LIII. – 1997. – C. 7-15.

10. Шадже, А. Ю. Этнические ценности как философская проблема. Майкоп: ООО «Качество». –2005. – 168 с.

11. Schwartz S.H. Are There Universal Aspects in the Structure and Contents of Human Values? // Journal of Social Issues. –1994. – 50(4). – С. 19-45.

12. World Values Survey Association. (n.d.). World Values Survey. https://www.worldvaluessurvey.org/

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZI		
Sirojiddinov Sh.S.	O‘zbek tilining xalqaro nufuzini oshirish zarurati	**6**
I. O‘ZBEK TILINING JAHON TILLARI TIZIMIDAGI O‘RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI		
Xolmanova Z.	O‘zbek tilining jahon tillari tizimidagi mavqeyini belgilashda lingvodidaktikaning o‘rni	**9**
Abdushukurov B.	Alisher Navoiy asarlaridagi qadimgi turkiy fe’llar semantikasi	**16**
Xudoyberdiyev J.	Mahmud Koshg‘ariy – singarmonizmning birinchi nazariyotchisi va ovrupolik olimlarning singarmonizm haqidagi xato qarashlari	**30**
Abdurahmanova M.	Alisher Navoiy merosi psixolingvistik talqinda	**45**
Xolmurodova M.	“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tabobatga doir ayrim arabcha so‘zlar	**51**
O‘razova I.	Ot frazemalarning grammatik funksiyasi (Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi frazemalar misolida)	**56**
Maxkamova D.	O‘zbek tili axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	**60**

	terminologiyasi taraqqiyoti va tadqiqi	
Oripova M.	Sinestezik metaforalarda sezgilar interperatsiyasi	**66**
Muratova N.	Tilak va tabrik nutqiy aktlarida kommunikativ taktikaning tanlanish xususiyatlari	**72**
Abdullayeva G.	Folklor diskursida o‘xshatishlarning semantik-struktur va kognitiv tahlili	**78**
Xayrullayeva R.	Kichraytirish-erkalash shakllarining pragmatik ifodalanishi	**86**
Jumaniyozova Ch.	Sifat so‘z turkumida obyektiv va subyektiv belgilarning ifodalanishi	**90**
Abduvaliyeva K.	“Shajarayi turk” asaridagi ba’zi urug‘ nomlarining etnotoponim sifatidagi tahlili	**95**
Mullaboyeva Sh.	O‘zbek tilida o‘xshatishlar asosida estetik bahoning ifodalanishi	**107**
Mamadoliyeva M.	Graduallik kategoriyasining lingvistik tabiati va uning turdosh hodisalar bilan munosabati (Xayriddin Sultonov va Iqbol Mirzo asarlari misolida)	**115**
Mamarasulova M.	O‘zbek tili fonosemantik tahlilining fonologik asoslari	**130**
Siddiqova N.	O‘zbek xalq maqollaridagi eskirgan leksika: tarkibi,	**132**

	variantlanishi va lingvopoetik vazifalari	
Yusupova A.	Konseptlarning metaforik ifodalanishi va tahlil shakllari	**144**
O‘ralova N.	O‘zbek tilshunosligida parsellyatsiya hodisasi, uning sintaktik tavsifi va ega-kesim munosabatidagi o‘rni	**150**
Maxmudova M.	Kelishik kategoriyasining o‘rganilish tarixiga doir ayrim mulohazalar	**158**
Nurmatova S.	O‘zbek tilida rang ifodalovchi birliklarning lingvokognitiv strukturasi va konseptualizatsiya masalalari	**168**
Keldiyorova Z.	O‘zbek tilidagi shikoyat matnlarida nutqiy aktlarning ifodalanishi	**174**
Aliqulova Z.	Toponimlarning axborotni saqlash va uzatish xususiyatlari	**178**
Jurayeva Sh.	Hurmat kategoriyasining lisoniy birliklar bilan ifodalanishi	**183**
Karimova U.	Kultegin bitiktoshidagi xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar tahlili	**188**
II. O‘ZBEK TILINI XALQARO MAYDONDA TARG‘IB QILISH STRATEGIYALARI		
Shamsiyeva M.	Peyzaj matnlari orqali turizmni rivojlantirish istiqbollari	**194**

Jo‘rayeva M.	Matnni tushunishda asar sarlavhasining ahamiyati	**201**
III. GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY TIL VA MADANIYATNI SAQLASH MASALALARI		
Ashirboyev S.	Adstrat sharoitidagi turkiy shevalarning o‘zaro ta’siri masalasi	**205**
Farhad Rahimi	Yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk kelimeleri üzerine On the words yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk	**210**
Xakimova M.	O‘zbek tilidagi metaforik konseptuallashtirishning milliy xususiyatlari	**232**
Abbozov O.	So‘x toponimlarining lingvomadaniy xususiyatlari	**238**
Komilova G.	O‘zbek tilida qadriyatlar tipologiyasining lingvistik verbalizatsiyasi	**245**
Xomidova M.	Zamonaviy o‘zbek badiiy matnlarida ertak elementlarining intertekstual xususiyatlari	**253**
Həsənzadə Səmra	Qrammatik metaforun türk dillərində reallaşması (özbək dilinin materiallari əsasinda)	**261**
Davronova Z.	Antroponimik freymlarda registrdan og‘ish fenomini (Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani misolida)	**272**

Tursinbayeva Sh.	Badiiy matnda onomastik birliklarning lingvomadaniy imkoniyatlari	**276**
Bekmuradova I.	O‘zbek tilidagi ijobiy fe’l-atvor leksemalarining semantik tasnifi	**283**
Imomova I.	Fitratning dramatik asarlarida maqollarning qo‘llanilishi va funksional-semantik xususiyatlari	**291**
Turgunboeva D.	Globallashuv sharoitida o‘zbek va ingliz lingvomadaniyatida miqdoriy me’yor	**297**
Amrullayeva M.	O‘zbek tilida inson xarakterini ifodalovchi frazemalarning semantik mikromaydonlari	**305**
Abdug‘afurova A.	Lingvomadaniy kodlarning poetik faollashuvi: Faxriyor va Ulug‘bek Hamdam she’riyati qiyosida	**312**
Muzaffarova Z.	Badiiy matnda qo‘llangan metaftonimik birliklarning kognitiv xususiyatlari	**322**
Jumayeva M.	Son komponentli lug‘aviy birliklarning lingvokulturologik tahlili	**327**
Xolmo‘minova H.	Frazemalarning lingvomadaniy tahlili	**333**
IV. O‘ZBEK TILINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI VA XORIJIY TAJRIBA		

Xusanova N.	Raqamli ta’lim muhitida o‘qish savodxonligi transformatsiyasi vositasida boshlang‘ich o‘quvchilarning kreativligini shakllantirish	**337**
Mamirova X.	Bolalarda ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashtirishning psixolingvistik mexanizmlari va til ta’limiga ta’siri	**344**
Arolova N.	Maktabgacha yoshdagi o‘zbek bolalari nutqida sintaktik tejamkorlik	**351**
Mirnosirova D.	Nutqiy ijod haqidagi nazariy qarashlar talqini	**356**
Nurboboyeva R.	Erta yoshdagi bolalar ta’limida adabiyotning tutgan o‘rni	**363**
Keldiboyeva M.	O‘zbek tili omonimlarini o‘zlashtirishda kontekst va assotsiatsiyaning psixolingvistik roli	**369**
V. TARJIMA VA LINGVOMADANIY ALOQALAR: XALQARO HAMKORLIKNING MUHIM OMILI SIFATIDA		
Mustafa Said Arslan	Türkiye türkçesi ve özbek türkçesi arasindaki yakinliğin öğretimdeki yansimalari: özbek türkçesi öğretiminde karşilaşilan sorunlar ve öneriler	**378**
Kalanova D.	O‘.Hoshimov “Dunyoning ishlari” asarining koreyscha tarjimasida milliy-madaniy realiyalarning berilishi	**389**

Muhammadiyeva D.	Ko‘p tilli parallel korpusning tarjima birliklarini qiyosiy o‘rganishdagi imkoniyatlari	**400**
Abbasova Ş.	Özbek Yazı Dili ve Azerbaycan Türkçesi'nin Ağızlarında Akrabalık Terimleri	**411**
Qarshiyev K.	Badiiy tarjimaning adabiy-estetik tafakkur evolyutsiyasiga ta’siri (Jamol Kamolning tarjimonlik faoliyati misolida)	**418**
Rahimova Z.	Parallel korpuslarning tarjimashunoslik va qiyosiy tilshunoslikdagi ilmiy ahamiyati	**428**
Bozorova S.	Rus tilidagi ayrim gippologik birliklar tadqiqiga doir	**433**
Axmedova N.	O‘zbek va ingliz tillarida ruhiy holat birliklarining semantik farqlari va kontekstual tarjimasi	**442**
Davlatova R.	Sun’iy intellekt asrida inson nutqi, tilni idrok etish va psixolingvistik jarayonlar	**448**
Turdiyeva R.	Ingliz, qoraqalpoq va o‘zbek tillaridagi maqollarda zoonimlarning lingvokognitiv tahlili (“bo‘ri” misolida)	**462**
Ataniyazova S.	O‘zbek va ingliz tillarida mayl, zamon va modallikning muloqot xulqidagi funksional-uslubiy imkoniyatlari	**466**
Sayfiyeva K.	O‘zbek va ingliz fitonim komponentli maqollarida inson	**472**

	konseptining kognitiv metaforik modellari	
Tillayeva O.	O‘zbek va turk maqollarida erkak konseptining semantik maydoni	**485**
Musurmankova Sh., **Abdullayeva D.**	“Ikki eshik orasi” romanidagi murojaat birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari va tarjima muammolari	**495**
Abdullayeva M.	Ingliz va o‘zbek maqollarida nutqiy antonimiyaning lingvokognitiv xususiyatlari	**502**
VI. AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA RAQAMLI MUHITDA O‘ZBEK TILINING RIVOJI		
Abjalova M.	O‘zbek tili multikorpusida aksentologik korpus va uning ahamiyati	**513**
Elova D.	O‘zbek normativ-huquqiy matnlarini lingvo-mantiqiy annotatsiyalash mezonlari	**524**
Kasimova Z.	O‘zbek tili iboralar korpusini yaratishning lingvistik va kompyuter asoslari	**534**
Nurullayeva O.	Barqaror birikmalar resurslari va parallel korpus uchun baza tuzish mezonlari	**542**
Musulmonova K.	Lingvistik ekspertologiyada matn identifikatsiyasi bo’yicha ekspert xulosalarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari	**550**

Umarova Sh.	Kollokatsiyalarni korpus asosida aniqlashning nazariy va metodologik asoslari	**556**
Akramdjanova M.	Parallel korpusning madaniyatlararo kommunikatsiyadagi o‘rni	**564**
Buronova R.	Raqamli muhitda o‘zbek tilidagi neologizmlarning shakllanishi	**570**
Shodmonaliyeva Y.	Sentiment tahlilda tasdiq-inkor emojlarining diskursiv va pragmatik funksiyalari	**576**
Rayimjonova M.	Rauf Parfi she’riyatining leksik-statistik xususiyatlari	**591**
VII. XALQARO TA’LIM DASTURLARI VA O‘ZBEK TILI: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR		
Mirzəli Məleykə	Azərbaycanda özbək dilinin tədrisi: təcrübə və perspektivlər (bakı slavyan universitetinin timsalında)	**595**
Iskandarova G.	O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishda so‘z ma’nolarini o‘zlashtirish	**603**
VIII. O‘ZBEK TILI VA DIPLOMATIYA: XALQARO MUNOSABATLARDA TILNING O‘RNI		
Темирова Б., **Темирова М.**	Кыргыз, өзбек тилдери жана алардын адабий-маданий байланыштардагы ролу	**610**

Nazarov Q.	O‘zbek diplomatik diskursida metaforalarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari	**620**
IX. ILMIY TADQIQOTLAR VA LINGVISTIKADA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI		
Berdak Yusuf	O‘zbek tilining shakllanish jarayoni va eski o‘zbek tili terminlari	**626**
Qurbonova M.	Xarizmatik nutq haqidagi nazariy qarashlar talqini	**632**
Umurzoqova M.	Erkin A’zam asarlarida lisoniy shaxs tiplari	**640**
Mirzaali Malika	O‘zbek tılının mavsumıy marosımlar leksıkasıda turkıy areal mavqeyı	**646**
Məmmədova A.	Xarəzm Türkcəsində Və Müasir Özbək Dilində Qohumluq Terminlərində Cins Kateqoriyasinin İfadəsi	**661**
Tuxtasinova M.	L.Z.Budagov lug‘atidagi umumturkiy leksik fond: “tur.” pometali leksemalarning tarixiy-qiyosiy tahlili	**670**
Abdullayeva S.	So‘z yasalishını qıyosıy-tıpologık tadqıq etısh metodologıyası va tahlıl mezonları	**681**
Xasanova G.	Kinesikaning lingvistik tadqiqi: shakllanish tarixi va kommunikativ funksiyalari	**688**

Rajabov N.	O‘zbek tilida ng fonemasining talaffuzi, imlosi va tarixiy taraqqiyoti	**695**
Mirzayeva G.	O‘zbek tilida tovush o‘zgarishlarining neyrolingvistik asoslari	**699**
Arislanova M.	She’riy matnning konseptual tizimi va lingvokognitiv xususiyatlari (Erkin Vohidov ijodi misolida)	**706**
Muhammadiyeva M.	“Shum Bola” qissasidagi ba’zi polisemantik leksemalar tahlili	**717**
Abdullayev G‘.	Fitrat she’riyatidagi turkiy so‘zlarning emotsional-ekspressiv xususiyatlari	**722**
Tursunova S.	Ironiyada implikatura fenomeni va yashirin ma’no mexanizmlari	**726**
Turobova N.	Badiiy diskursda morfologik vositalarning pragmatik xususiyatlari	**737**
Utegenova O‘.	O‘zbek tilida tasviriy ifodalarning badiiy matnda qo‘llanilishi	**744**
Komilova G.	Tarixiy-badiiy matnlar korpuslarini yaratish zarurati va ularni semantik modellashtirish masalalari	**749**
Haydaraliyeva Sh., Mo‘minova M.	O‘zbek tili leksikasining taraqqiyot tamoyillari va semema tushunchasi	**759**

Axmedova M.	Diskurs tushunchasining lingvistik talqini: nazariy yondashuv va ilmiy qarashlar	**768**
Komilova Sh.	Lingvokultrologiyada evfemizm va milliy mentalitet: ayollar nutqi misolida nazariy talqinlar	**774**
Suyunova D.	“Boburnoma” dagi leksik qatlamlarning “Boburiynoma”da badiiy qayta faollashuvi: leksik-semantik va funksional-uslubiy tahlil	**780**
Maqsudaliyeva Y.	Lingvistik ekspertiza va lingvokriminalistik tahlil: nazariya va amaliyot	**786**
Abdurasulova D.	O‘zbek qizlari nutqidagi neonim va slenglarning pragmalingvistik tadqiqi	**792**
Majidova M.	Tibbiy soha rahbarlari kinesik nutqining lingvosomatik tadqiqi	**797**
Abdullayeva I.	Gender qadriyatlarning aksiolingvistik tahlili	**802**
X. O‘ZBEK TILINING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA MEDIA MAKONIDAGI O‘RNI		
Saydaliyeva M.	Kinodiskurs multimediali muloqot tizimi sifatida	**809**
Otaxonova S.	Mediamatnlarda antroponimlarning pragmatik imkoniyatlari	**813**